Karimov Abdusamat Ismonovich, Bo'stonova Nilufar Abdusmatovna	
CHAKANA SAVDO KORXONALARIDA ISTE'MOLCHILAR XULQ-ATVORINING SAVDO HAJMIGA TA'SIRINING TAHLILI.....	1125
Haydarova Mohichehra Xurram qizi	
BOSHQARUV TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA AXBOROT-KOMMUNIKATSION TEXNOLOGIYALARNING O'RNI.....	1131
Haydarov Husanboy Ahmadjon o'g'li	
DAVLAT QARZINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI: PANEL MA'LUMOTLAR TAHLILI.....	1135
Sanakulova B. R., Jamolov M.M.	
AUDITNING XALQARO STANDARTLARI ASOSIDA HISOBOT SANASIDAN KEYINGI HODISALAR AUDITI.....	1142
Muydinov Erkin Djumaldinovich	
AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISH MEXANIZMLARI.....	1148
Xamidov Anis Choriyevich	
BIOCHEMICAL CHANGES IN THE BODY DURING THE PERIOD OF FATIGUE AND REST AFTER WORK FOR ATHLETES.....	1153
Yoldasheva Roila Jumaevna, Ruyobova Shakhlo Anvar qizi	
KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISHGA OID XORIJIY MAMLAKATLARNING ILG'OR NAZARIYALARI VA YONDASHUVLARI.....	1159
Muradova Nazira Raximjanovna	
XORAZMDA IQTISODIY BARQARORLIK MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	1165
Xudayorova Munira Omonboy qizi	
QURILISH MATERIALLARI SANOATIDA INNOVATSION BUXGALTERIYA HISOBINI JORIY ETISH.....	1170
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGI MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQ SOLISH BAZASINI KENGAYTIRISH IMKONIYATLARI.....	1175
Jononmirzayeva Dilafruz Ilhom qizi	
ИЗБАВЛЕНИЕ ОТ ИНФЛЯЦИИ С ИСПОЛЬЗОВАНИЕМ ЦИФРОВЫХ МЕТОДОВ И МАТЕМАТИЧЕСКИХ МОДЕЛЕЙ В СФЕРЕ ИНФОРМАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ.....	1180
Абидов А.А., Ахраров Б.С., Паязов М.М., Ахмедов А.М.	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR TADBIRKORLIGINI RIVOJLANTIRISH VA INNOVATSION BIZNES TASHABBUSLARINI QO'LLAB-QUVVATLASH MEXANIZMLARI.....	1185
Karimova Mavjuda Boxodirovna	
INVESTITSIYA MUHITINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI YUQORI TEXNOLOGIYALI TARMOQLARNI RIVOJLANTIRISH VA IQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASH.....	1189
Raxmatova Nargizaxon A'zamxonovna	



O'ZBEKISTONDA ELEKTRON PULGA O'TISH ISTIQBOLLARI, KORRUPSIYA VA YASHIRIN IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISHDA KUTILAYOTGAN SAMARADORLIK	1195
Pulatov Dilshod Xaqberdiyevich, Abdiyev Mansur Musurmonovich	
KICHIK BIZNES TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI IQTISODIY XAVFSIZLIGI MASALALARI	1202
Anafiyayev Abdurashid Mamasidiqovich	
RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA ISHLAB CHIQARISH XARAJATLARI HISOBINI AVTOMATLASHTIRISH	1206
Xusinov Ibragim Ismoilovich	
ЭВОЛЮЦИЯ ТОРГОВОЙ ПОЛИТИКИ ТУРЦИИ В КОНТЕКСТЕ ИНТЕГРАЦИИ В ГЛОБАЛЬНЫЕ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ ЦЕПОЧКИ	1210
Солиев Абдумаджид Джабборович	
MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DIREKTORINING MOLIVAVIY SAVODXONLIGI: NAZARIYA VA AMALIYOTI.....	1215
Abdullayeva Nafisa Shavkatovna, Boymuradov Normurod Abdusodikovich	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA MOLIVAVIY HIMOLA XIZMATLARI KO'RSATISHNING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	1220
G'aniyeva Nozima Alijon qizi	
ОЦЕНКА ПОТЕНЦИАЛА КЛАСТЕРИЗАЦИИ КОКОНОПЕРЕРАБАТЫВАЮЩИХ ПРЕДПРИЯТИЙ НА ШЕЛКОВОМ ОТРАСЛИ УЗБЕКИСТАНА.....	1225
Ходжиматов Равшанбек Расулжанович	
XIZMAT KO'RSATISH SOHASIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLANISHINING XORIY TAJRIBASI	1231
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
TEMIR YO'L TRANSPORTI KORXONALARIDA MOLIVAVIY-IQTISODIY BOSHQARUV SAMARADORLIGINI OSHIRISH UCHUN KONTROLLING VOSITALARINI JORIY ETISH.....	1236
Kayumov Zafarbek Odil o'g'li	
BANK HR JARAYONLARIDA SUN'IY INTELLEKTNI QO'LLASH IMKONIYATLARI.....	1243
D. Djabbarova	
MEHNAT BOZORIDA NORASMIY BANDLIKNI QISQARTIRISH MEXANIZMLARI	1247
Mirzakarimova Muyassarxon Muminovna	
IJTIMOY XIZMATLAR TIZIMIDA DAVLAT VA NODAVLAT SEKTORINING O'ZARO ALOQASI HAMDA XORIYIY TAJRIBA TAHLILI.....	1251
Berdiyeva Nafisa Qahramonovna	
ПРИМЕНЕНИЕ КОНТРОЛЛИНГА В ОРГАНИЗАЦИОННО-ЭКОНОМИЧЕСКОЙ СИСТЕМЕ УПРАВЛЕНИЯ ЖЕЛЕЗНОДОРОЖНОГО ТРАНСПОРТА	1257
Каяумов Зафарбек Одил угли	
BILVOSITA SOLIQLAR HISOBINI TASHKIL ETISHDA SOLIQ NAZORATINING AHAMIYATI	1263
Djalilov Rahmonkul Hamidovich	
INVESTITSION FAOLIYATNING IQTISODIY MOHIYATI VA UNING SANOAT RIVOJLANISHIDAGI O'RNI	1268
Yuldoshev Sobir Fayzullayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI IQTISODIYOTINING TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA AHOLI DAROMADLARINING TAQSIMOT TAHLILI.....	1272
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
TIJORAT BANKLARIDA RAQAMLI MARKETINGNI QO'LLASHNING XORIY TAJRIBASI.....	1277
Raxmatova Shaxnoza Rustamovna, Ochilova Dilnoza Ismoil qizi	
ФОРМИРОВАНИЯ УСТОЙЧИВОЙ ЗАНЯТОСТИ В ПРОМЫШЛЕННОСТИ В УСЛОВИЯХ ТЕХНОЛОГИЧЕСКИХ ПРЕОБРАЗОВАНИЙ	1283
Б.С. Разакова	
ZAMONAVIY TURISTIK KLASSTERLARNI BOSHQARISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	1289
Azim Pulatov	
O'ZBEKISTONDA YOSHLAR BANDLIGINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI VA DAVLAT SIYOSATINING SAMARADORLIGI	1296
Qodirov Baxodirjon Shuhratovich	



YASHIL TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA SANOAT KORXONALARINING ISHLAB CHIQUARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISHDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANING AHAMIYATI	1302
Ergashev Sanjarbek Sobirjon o'g'li	
ONLAYN TA'LIM PLATFORMALARI INTERAKTIV CHATBOTLARI SAMARADORLIGINI KOMPLEKS BAHOLASH	1306
Zaripova Mukaddas Djumayozovna, Yusupova Asila Xidirqul qizi	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARINING MOLIVAVIY BARQARORLIGINI BAHOLASHNING TAKOMILLASHTIRILGAN USLUBIYOTI	1313
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA IQTISODIY MUTANOSIBLIKKA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR TAHLILI VA ULARNING O'ZGARISH TENDENSIYALARI	1320
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
O'ZBEKISTONDA AHOLI TURMUSH DARAJASINI YAXSHILASHNI MOLIVAVIY MANBALARI	1327
Mansurov Mansur Alisherovich, Xolbekova Dilobarxon Rasuljon qizi	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA MONETAR SIYOSATNING TRANSMISSIYA MEXANIZMLARI SAMARADORLIGI.....	1330
Boltayeva Nilufar Shavkat qizi	
HUDUDIIY TURIZM RIVOJLANISHIDA BARQAROR BOSHQARUV STRATEGIYALARINI ISHLAB CHIQUISH	1336
Barakayev Elbekjon Abdulla o'g'li	
O'ZBEKISTON TA'LIM TIZIMIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI JORIY ETISH.....	1343
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
ILG'OR XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASIDA BOSHQARUV XODIMLARI QOBILIYATLARIDAN FOYDALANISH ORQALI KORXONA SALOHİYATINI YUKSALTIRISH YO'LLARI.....	1348
Ayubxon Qutbiddinov Bosit o'g'li	
INTEGRATSIYALASHGAN XARAJATLAR TAHLILI: ISHLAB CHIQUARISH VA LOGISTIKA XARAJATLARINING MAHSULOT TANNARXIGA TA'SIRI	1353
Zokirjonov Asadbek Otabek o'g'li, Xashimova Zuhaxon Kahramonovna	
QASHQADARYO VILOYATI SANOATINI INNOVATSION RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASINING ASOSIY YO'NALISHLARI VA ULARNI EKONOMETRIK MODELLAR YORDAMIDA BAHOLASH	1358
Raxmatullayev Doston Asad o'g'li	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI.....	1361
Ro'ziboyev Oybek Baxromovich	



MAKTABGACHA TA'LIM MUASSASALARIDA BOLALAR TA'MINOTIGA OTA-ONALAR TOMONIDAN HAQ TO'LASH VA UNDAN FOYDALANISH TARTIBINING BUXGALTERIYA HISOBI



Ro'ziboyev Oybek Baxromovich

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil tadqiqotchisi

Email: oybekbaxromovich@gmail.com

Annotatsiya. Maqolada maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minotiga haq to'lash va undan foydalanish tartibi bo'yicha vujudga kelayotgan savollarni yoritish orqali ota-onalar hamda maktabgacha ta'lim muassasalari hisobchilariga yordam berish maqsad qilingan.

Kalit so'zlar: budget tashkiloti, budget tashkilotining budgetdan tashqari hisobi, buxgalter, buxgalteriya hisobi, ota-ona to'lovi, yo'riqnoma.

Abstract. The article aims to help parents and accountants of preschool educational institutions by elucidating the questions that arise regarding the payment of fees for child support in preschool educational institutions and the procedure for using it.

Key words: budgetary organization, off-budget accounting of budgetary organization, accountant, accounting, parental fee, guidance.

Аннотация. В статье рассматриваются вопросы, возникающие при взимании и использовании родительской платы за обеспечение детей в дошкольных образовательных учреждениях, с целью оказания практической помощи родителям и бухгалтерам дошкольных организаций.

Ключевые слова: бюджетная организация, внебюджетный учёт бюджетной организации, бухгалтер, бухгалтерский учёт, родительская плата, инструкция.

KIRISH

O'zbekistonda bola tarbiyasiga alohida e'tibor beriladi, chunki ertangi kun, kelajagimiz shu farzandlarga bog'liq. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minotiga haq to'lash tartibi bo'yicha qanday me'yoriyhuquqiy hujjatlar mavjud?

Bugungi kunda O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi va Moliya vazirligining 2016-yilning 25-iyulidagi 8-mh va 55-son qarori bilan yangi tahrirdagi "Maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab-internatlardagi bolalar ta'minotiga haq to'lash tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlangan. Ushbu nizom O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yilning 23-avgustida 2821-son bilan ro'yxatga olingan.

Mazkur nizom asosida maktabgacha ta'lim muassasalari va maktab-internatlardagi bolalar ta'minoti uchun ota-onalar to'lovi hamda ushbu to'lovdan foydalanish tartibi yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovi hisobini tashkil etish bo'yicha ilmiy yondashuvlar, asosan, davlat moliyasi, byudjet jarayonlari, ta'limni moliyalashtirish mexanizmlari va byudjetdan tashqari



tushumlar boshqaruvi bilan bog'liq tadqiqotlarda shakllangan. Ta'lim iqtisodiyoti bo'yicha yetakchi tadqiqotchilardan biri bo'lgan Eric A. Hanushek ta'limni moliyalashtirish tizimida resurslar taqsimoti va byudjet ustuvorliklari ta'lim sifatiga bevosita ta'sir qilishini ilmiy jihatdan asoslaydi. Uning ta'kidlashicha, maktabgacha ta'limda moliyaviy barqarorlikni ta'minlash uchun ota-onalar to'lovi kabi mahalliy moliyaviy manbalarni to'g'ri hisobga olish muhim omildir. James E. Ryan tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda ta'lim muassasalarining byudjetdan tashqari tushumlarining huquqiy tartibga solinishi va ularni hisobga olish mexanizmlarining shaffofligi ta'lim barqarorligining kaliti sifatida izohlanadi. Bu qarashlar maktabgacha ta'lim tizimida to'lovlarni aniq, qayd etiladigan va auditga mos tarzda yuritish zarurligini tasdiqlaydi.

Ta'lim tizimida moliyalashtirishni boshqarish bo'yicha UNESCO va OECD tomonidan muntazam ravishda e'lon qilinadigan hisobotlar maktabgacha ta'lim uchun moliyaviy majburiyatlarning turli mamlakatlarda qanday tashkil etilishini tahlil qiladi. Ularning tadqiqotlari ota-onalar to'lovi mexanizmlari ko'plab davlatlarda ta'lim jarayonining asosiy qo'shimcha moliyaviy manbasi ekanini ko'rsatadi. Xususan, OECD ta'lim siyosati bo'yicha o'tkazgan yirik monitoring ishlari moliyaviy hisobning aniq yuritilishi, nazorat mexanizmlari va to'lovlarni raqamlashtirish orqali ishonchlilik darajasini oshirish mumkinligini ilmiy asoslaydi.

Maktabgacha ta'lim moliyasi bo'yicha amerikalik tadqiqotchi Bruce Fuller tomonidan olib borilgan ilmiy izlanishlarda ota-onalar ishtiroki ta'lim muassasalarining moliyaviy barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi qayd etiladi. U raqamlashtirilgan to'lov tizimlari, kontrakt asosidagi to'lovlarning shaffofligi va byudjetdan tashqari tushumlar hisobining markazlashgan axborot tizimlari orqali yuritilishini zarur deb hisoblaydi. Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida moliyaviy boshqaruvning xalqaro modellari ham ilmiy adabiyotlarda keng yoritilgan. Masalan, Clive Belfield ta'lim xarajatlarning iqtisodiy samaradorligi va moliyaviy instrumentlarning o'zaro bog'liqligini tahlil qilib, maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovini hisobga olishda "xarajat – foyda" tamoyilining muhim ahamiyatini ko'rsatadi.

Moliya va hisob sohasi bo'yicha ilg'or tadqiqotchilar — Michael H. Granof va David R. Herndon — davlat sektori buxgalteriya hisobi bo'yicha ilmiy ishlarda byudjet tashkilotlarida to'lovlarni hisobga olishda daromadlarni tan olish tamoyillari, hisob registrilarini to'g'ri yuritish, schyotlar o'rtasidagi harakatlarni hujjatlashtirish va byudjet ijrosini konsolidatsiyalash masalalariga e'tibor qaratadi. Ularning ta'kidicha, ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovi davlat buxgalteriya standartlarida belgilangan tartib asosida tan olinishi, tegishli daromad schyotlariga qayd qilinishi va byudjetdan tashqari fondlar bilan mutanosib ravishda bog'lanishi zarur.

Shuningdek, xalqaro tajribada ta'limni moliyalashtirish bo'yicha Theodore R. Mitchell va Elizabeth Sawhill tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda maktabgacha ta'limdagi moliyaviy tartib-qoidalar, to'lovlarni avtomatlashtirilgan tizimlar orqali boshqarish va moliyaviy hisobni raqamli audit vositalari yordamida tekshirishning afzalliklari yoritiladi. Ushbu ilmiy manbalar ota-onalar to'lovini buxgalteriya hisobida shaffof, standartlashtirilgan va raqamlashtirilgan model asosida yuritishning maktabgacha ta'lim siyosatiga ijobiy ta'sir ko'rsatishini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi maktabgacha ta'lim muassasalarida ota-onalar to'lovi hisobini yuritish amaliyotini o'rganish uchun normativ-huquqiy hujjatlar tahlili, MMTB va Moliya vazirligi ma'lumotlar bazalaridan olingan statistik ko'rsatkichlar, shuningdek muassasalarning buxgalteriya registrilari va to'lov hujjatlari bo'yicha birlamchi ma'lumotlarni yig'ish hamda ularni taqqoslash, kontent-tahlil va deskriptiv tahlil usullari orqali qayta ishlashga asoslanadi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minoti uchun to'lov miqdori O'zbekiston Respublikasi Prezidentining har yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risidagi qarorlari bilan, muassasada bolalarni saqlab turish soatlaridan kelib chiqib tasdiqlanadi. 2016-yil uchun to'lov O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yilning 22-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat budjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-son¹ qaroriga asosan belgilangan².

Maktabgacha ta'lim muassasasiga bitta oiladan ikki va undan ortiq bolalar qatnasa, ularning har biriga ushbu toifadagi oilalar uchun qonun hujjatlarida belgilangan to'lov miqdorlari qo'llaniladi. Bitta oiladan ikki va undan ortiq bolalar turli maktabgacha ta'lim muassasalariga qatnagan taqdirda, ota-onalar yoki ularning o'rnini bosuvchi shaxslar bir farzandi boradigan maktabgacha ta'lim muassasasiga ikkinchi farzandi boradigan maktabgacha ta'lim muassasasidan uning qatnashi to'g'risida ma'lumotnomani taqdim etishi lozim.

1 <https://lex.uz/docs/-2849450>

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015-yil 22-dekabrda "O'zbekiston Respublikasining 2016-yilgi asosiy makroiqtisodiy ko'rsatkichlari prognozi va Davlat byudjeti parametrlari to'g'risida"gi PQ-2455-son qarori



Bugungi kunda bolalar ta'minoti uchun to'lovlar ota-onalar va maktabgacha ta'lim muassasalari o'rtasida tuzilgan shartnomaga asosan amalga oshiriladi. Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minoti uchun to'lovlar har oyning 15-sanasidan kechiktirmasdan to'lanadi. Oyning 15-sanasidan keyin kelgan bolalar ta'minoti uchun to'lovlar bola kelgan kundan boshlab 3 kun ichida to'lanadi. Bunda to'lovlar bolaning shu oyda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnaydigan kunlariga mutanosib ravishda amalga oshiriladi. Ota-onalar tomonidan shartnoma shartlari bajarilmasligi yoki lozim darajada bajarilmasligi, shu jumladan to'lov shartnomada belgilangan miqdorda hamda ko'rsatilgan muddat – 15-sanadan o'tgach ikki hafta mobaynida uzrli sabablarsiz to'lanmagan taqdirda, ota-onalar bilan tuzilgan shartnomaning amal qilishi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda to'xtatiladi va bu bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida bo'lishini to'xtatish uchun asos bo'ladi.

Maktabgacha ta'lim muassasasidagi bola ta'minoti uchun ota-onalar tomonidan amalga oshirilmagan to'lov 60 kun ichida to'lab berilganda, bolani tegishli maktabgacha ta'lim muassasasiga tiklash majburiy tartibda amalga oshiriladi. Mazkur muddat o'tib ketgan taqdirda, maktabgacha ta'lim muassasasiga bolani tiklash yangi qabul qilingan bolalar uchun belgilangan tartibda amalga oshiriladi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minoti uchun to'lovlar tijorat banklari orqali naqd pul yoki naqd pulsiz shaklda (bank plastik kartochkalari orqali va pul o'tkazish yo'li bilan) to'lanadi. Bunda to'lovning amalga oshirilganligini tasdiqlovchi hujjat nusxasi maktabgacha ta'lim muassasasiga taqdim etiladi.

To'lov maktabgacha ta'lim muassasasiga xizmat ko'rsatuvchi tegishli g'aznachilik bo'linmasining hududiy g'aznachilik hisobvarag'iga o'tkaziladi va O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yilning 24-martdagi 21-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish" qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yilning 30-martida 2772-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan) asosida maktabgacha ta'lim muassasasi uchun ochilgan budjetdan tashqari 4 005... "Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minoti uchun ota-onalardan tushumlar" shaxsiy g'aznachilik hisobvarag'ida hisobga olinadi³.

Maktabgacha ta'lim muassasasida bola ta'minoti uchun to'lovning bir kunlik qiymati bir oylik to'lov miqdorini shu oy mobaynidagi ish kunlari soniga bo'lish orqali aniqlanadi. Masalan, Toshkent shahrida bitta bolaga bir oylik to'lov miqdori 110500 so'm, maktabgacha ta'lim muassasasi haftada 5 kun ishlaydi. Noyabr oyida ish kunlari soni 22 kun. Bir kunlik to'lov = bir oylik to'lov 110500 so'm / 22 kun = 5023 so'm.

Bolaning yoki oila a'zolarining kasalligi, karantin holatida bo'lganligi, shuningdek ota-onalardan birining ishdan (o'qishdan) bo'sh vaqti davrida yoki boshqa sabablarga ko'ra bola maktabgacha ta'lim muassasasiga ketma-ket uch kundan ortiq kelmagan davri uchun to'langan to'lovlar keyingi to'lovlarni amalga oshirishda hisobga olinadi. Bunda bolaning kelmagan kunlari soni bir kunlik to'lov miqdoriga ko'paytirilib, keyingi to'lov summasi chiqqan summaga kamaytiriladi.

Agar bolaning kelmagan kunlari uchun to'lov hali amalga oshirilmagan bo'lsa, to'lanishi lozim bo'lgan to'lov miqdori u kelmagan kunlari uchun hisoblangan to'lov summasiga kamaytiriladi. Bolaning yoki uning oila a'zolarining kasalligi, karantin holatida bo'lganligi tufayli bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmaganligi tegishli davolash-profilaktika muassasasi yoki uchastka shifokori tomonidan beriladigan ma'lumotnoma bilan tasdiqlanishi shart.

Ota-onalardan birining ishdan (o'qishdan) bo'sh vaqti davrida yoki boshqa sabablarga ko'ra bola maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmasligiga ota-onalardan birining sababi ko'rsatilgan holda maktabgacha ta'lim muassasasi rahbariyati nomiga oldindan yozgan arizasi (bildirishnomasi) asos bo'lib hisoblanadi. Bunda bolaning bir yilda ko'pi bilan 60 kundan ortiq bo'lmagan muddatgacha maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmasligiga ruxsat beriladi.

Bolaning uyda qolgan boshqa barcha hollarida maktabgacha ta'lim muassasasida bola ta'minoti uchun to'lovlar umumiy asoslarda to'lanadi. Ota-onaning oldindan bergan yozma arizasiga asosan bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashi butunlay to'xtatilgan taqdirda, to'lov to'liq bo'lmagan oy uchun, ya'ni bola amalda maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnagan kunlar uchun to'lanadi.

Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashi vaqtincha yoki butunlay to'xtatilishi to'g'risida ota-onaning yozma arizasi bo'lmagan hollarda to'lov to'liq oy uchun hisoblanadi va umumiy asoslarda undiriladi. Bolaning maktabgacha ta'lim muassasasida to'lov to'langan davrdan ortiq muddatda bo'lishiga shu oy uchun to'lovning qolgan qismi to'langandan so'ng yo'l qo'yiladi.

Masalan, bola 2016-yilning noyabr oyida kasalligi sababli 10 kun maktabgacha ta'lim muassasasiga kelmadi. Noyabr oyida to'lov miqdori 110500 so'm, ish kunlarining rejadagi soni 22 kun. Bir kunlik to'lov = bir oylik to'lov 110500 so'm : 22 kun = 5023 so'm. Endi 10 kunlik to'lov miqdorini aniqlaymiz: bir kunlik to'lov 5023

³ O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2016-yil 24-martdagi 21-sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining axborot tizimida shaxsiy g'azna hisobvaraqlarini yuritish" qoidalari (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2016-yil 30-martda 2772-son bilan davlat ro'yxatidan o'tkazilgan)



so'm * 10 kun = 50230 so'm. Sababli qoldirilgan 10 kun uchun keyingi oyga to'lov amalga oshirilayotganda 50230 so'mga kamaytiriladi. Ya'ni keyingi oyga to'lov 110500 so'm – 50230 so'm = 60270 so'm to'lanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar umumiy sonining 15 foizi doirasida kam ta'minlangan oilalar farzandlari to'lovdan ozod qilinadi. Bunda birinchi navbatda ota-onalaridan biri yoki ikkalasi I yoxud II guruh nogironi bo'lgan kam ta'minlangan oila farzandlariga, shuningdek o'rtacha oylik jami daromadi eng past darajada bo'lgan kam ta'minlangan oila farzandlariga imtiyoz beriladi.

To'lovdan ozod qilinadigan kam ta'minlangan oila farzandlari ro'yxati fuqarolarning o'zini o'zi boshqarish organi tomonidan berilgan oilaning mulkiy ahvoli to'g'risidagi ma'lumotnomaga va tegishli maktabgacha ta'lim muassasasi ota-onalar qo'mitasining xulosasiga asosan aniqlanadi va shakllantiriladi.

To'lovdan ozod qilinadigan kam ta'minlangan oila farzandlari ro'yxati har o'quv yilining 25-sentyabr kuniga qadar tegishli maktabgacha ta'lim muassasasi rahbarining buyrug'i bilan tasdiqlanadi. Ro'yxatga kirmay qolgan, shuningdek yil davomida aniqlangan kam ta'minlangan oilalar farzandlari hisobidan zaxira shakllantiriladi. To'lovdan ozod qilingan bolalarning maktabgacha ta'lim muassasasiga qatnashi (bo'lishi) to'xtatilishi natijasida bo'shab qolgan o'rinlar zaxiradan to'ldirib boriladi.

Bunda bo'shab qolgan o'rinlar imtiyozga ega bo'lgan bolalarni birinchi navbatda tanlab olish tamoyiliga rioya qilgan holda to'ldirib boriladi. To'lovdan ozod qilinadigan kam ta'minlangan oila farzandlari ro'yxati u tasdiqlangandan keyin o'quv yil davomida qayta ko'rib chiqilishi mumkin.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minoti uchun to'lanadigan tushumlar nazarda tutilgan boshqa budget mablag'lari bilan birga maqsadli tartibda tarbiyalanuvchilarni oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilashga yo'naltiriladi.

Bola sog'lom o'sishi uchun belgilangan me'yorlar asosida ovqatlanishi muhimdir. Shu sababli mamlakatimizda bolalar sog'lig'iga alohida e'tibor berilib, ota-onalardan tushgan mablag'lar maktabgacha ta'lim muassasalarida to'lagicha oziq-ovqat mahsulotlarini sotib olishga sarflanadi.

Maktabgacha ta'lim muassasalarida bolalar ta'minotiga ota-onalar tomonidan to'langan mablag'larning buxgalteriya hisobini yuritish muassasaning buxgalteriyasi tomonidan amalga oshiriladi. Buxgalteriya hisobini yuritish, shuningdek to'lovlardan tushadigan mablag'larning kirim qilinishi va sarflanishi bo'yicha hisobotlarni tuzish O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yilning 17-dekabrdagi 105-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Budget tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomaga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yilning 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan) asosan Uzasbo dasturiy majmuasida amalga oshiriladi.⁴

Misol. Maktabgacha ta'lim muassasasida bola ta'minotiga haq to'lash bo'yicha ota-onalar bilan shartnomalar tuzilgan va bitta bolaga to'lov miqdori 110500 so'mni tashkil etadi. Buning buxgalteriya hisobida qanday tartibda aks ettirilishini ko'rib chiqamiz.

Birinchi: tuzilgan shartnomaga asosan hisobchi 15-memorial orderda quyidagicha buxgalteriya provodkasini tuzadi. Debet: 156 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar" subschyoti – 110500 so'm; Kredit: 242 "Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari" subschyoti – 110500 so'm.

Ikkinchi: ota-onalar tomonidan maktabgacha ta'lim muassasasidagi bola ta'minoti uchun to'langan mablag' maktabgacha ta'lim muassasasining 4005...lik shaxsiy g'azna hisobvarag'iga kelib tushganda 3-memorial orderda quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi. Debet: 110 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar" subschyoti – 110500 so'm; Kredit: 156 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar" subschyoti – 110500 so'm.

Uchinchi: maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minoti uchun to'langan to'lovlar oziq-ovqat ta'minotini yaxshilash uchun yo'naltiriladi. Shunga asosan badallar hisobidan oziq-ovqat mahsulotlari olish uchun shartnomaga muvofiq pul o'tkazilganda 3-memorial orderda quyidagicha buxgalteriya provodkasi tuziladi. Debet: 150 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar" subschyoti; Kredit: 110 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblardan tushgan mablag'lar" subschyoti.

To'rtinchi: mol yetkazib beruvchidan yuk xati va hisob-fakturaga asosan olib kelingan oziq-ovqat mahsuloti omborga olinganda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet: 091 "Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar" subschyoti; Kredit: 150 "Mol yetkazib beruvchilar va pudratchilar bilan hisob-kitoblar" subschyoti.

Beshinchi: olib kelingan oziq-ovqat mahsulotining tannarxiga qo'shiladigan xarajatlar yig'ilgan holda kirim qilinganda 11-memorial orderda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet: 061 "Oziq-ovqat mahsulotlari" subschyoti; Kredit: 091 "Tovar-moddiy zaxiralarga boshqa xarajatlar" subschyoti.

Oltinchi: hamshira tomonidan tuzilgan 299-son shakldagi menyu talabnomaga asosan oziq-ovqat mahsuloti bolalarga berilganda 12-memorial orderda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet:

4 O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirining 2010-yil 17-dekabrdagi 105-son buyrug'i bilan tasdiqlangan "Byudjet tashkilotlarida buxgalteriya hisobi to'g'risida"gi yo'riqnomaga (O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 2010-yil 22-dekabrda 2169-son bilan ro'yxatga olingan)



241 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar" subschyoti; Kredit: 061 "Oziq-ovqat mahsulotlari" subschyoti.

Shu tariqa har oyda maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minotiga ota-onalar tomonidan to'langan badallarning hisobi yuritiladi. Moliya yili tugaganidan keyin ota-onalar tomonidan to'langan badallarning hisobi joriy yil bo'yicha moliyaviy natijaga olib boriladi.

Yettinchi: ota-onalar tomonidan to'langan badallar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar joriy yil bo'yicha moliyaviy natijaga olib borilganda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet: 240 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar" subschyoti; Kredit: 241 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha mablag'lar hisobiga amalga oshirilgan haqiqiy xarajatlar" subschyoti.

Sakkizinchi: maktabgacha ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'larini joriy yil bo'yicha moliyaviy natijaga olib borilganda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet: 242 "Ta'lim muassasalarida hisoblangan ota-onalarning mablag'lari" subschyoti; Kredit: 240 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar" subschyoti.

To'qqizinchi: ota-onalar tomonidan to'langan badallar hisobidan hosil bo'lgan joriy yil bo'yicha ijobiy moliyaviy natijaning yakuniy moliyaviy natijaga olib borilishi quyidagicha rasmiylashtiriladi. Debet: 240 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar" subschyoti; Kredit: 281 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija" subschyoti.

Agar joriy yil bo'yicha salbiy moliyaviy natija hosil bo'lsa, yakuniy moliyaviy natijaga olib borilganda quyidagicha buxgalteriya provodkasi beriladi. Debet: 281 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha yakuniy moliyaviy natija" subschyoti; Kredit: 240 "To'lovlarning maxsus turlariga doir hisob-kitoblar bo'yicha joriy yilga moliyaviy natijalar" subschyoti.

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi bolalar ta'minotiga ota-onalar tomonidan to'langan badallarning buxgalteriya hisobi yuqoridagi buxgalteriya provodkalari asosida Uzasbo dasturiy majmuasida yuritiladi. Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, har bir hisobchi amaldagi me'yoriy-hujjatlarni o'rgansa, bilib olsa va ularga amal qilsa, u tuzgan moliyaviy hamda boshqa hisobotlar hech qachon xato bo'lmaydi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Budjet tizimi budjetlari ijrosi hisobini xalqaro hisob standartlari talablariga to'liq moslashtirish zarurati moliyaviy boshqaruvning shaffofligi, solishtiriluvchanligi va samaradorligini ta'minlashda muhim omil hisoblanadi. Shu maqsadda davlat budjeti, davlat maqsadli jamgarmalari hamda budjet tashkilotlarining budjetdan tashqari fondlari kesimida budjet ijrosi hisobi bo'yicha yagona buxgalteriya balansini shakllantirish ustuvor ahamiyat kasb etadi. Yagona balans tizimi nafaqat moliyaviy oqimlarni birlashtirilgan tarzda aks ettiradi, balki boshqaruv qarorlarini qabul qilishda ishonchli, aniq va standartlashtirilgan ma'lumotlar bazasini yaratadi.

Budjet tizimi budjetlari ijrosiga oid moliyaviy hisobotlarni yagona tizimga keltirish ham dolzarb vazifa bo'lib, bunda barcha darajadagi budjetlar bo'yicha moliyaviy hisobotlarning yagona shakl va mezonlar asosida tuzilishini ta'minlash talab etiladi. Hisobotlarning bir xil formatda yuritilishi ularni o'zaro taqqoslash, tahlil qilish va moliyaviy intizomni kuchaytirishga imkon beradi. Shu bilan birga, budjet hisobi va hisobotini yuritishga mas'ul mutaxassislarning malaka sertifikatiga ega bo'lishi amaliyotini bosqichma-bosqich joriy etish, ularning kasbiy kompetensiyalarini oshirish, muntazam ravishda malaka oshirish jarayonlarini yo'lga qo'yish budjet jarayonining institutsional sifatini sezilarli darajada kuchaytiradi.

Budjet hisobi va hisobotini yuritish bo'yicha axborot tizimlarini yangilash hamda ularni qabul qilinayotgan Budjet hisobining standartlari talablariga moslashtirib borish tizimning samarali ishlashini ta'minlaydi. Axborot tizimlarining modernizatsiya qilinishi hisobotlarni avtomatlashtirilgan tartibda shakllantirish, xatoliklarni kamaytirish, real vaqt rejimida monitoring olib borish va budjet ijrosining umumiy boshqaruv sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Bu jarayonlar birgalikda budjet tizimi moliyaviy boshqaruvining xalqaro talablar asosida izchil takomillashuviga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Халқ таълими вазирлиги ва Молия вазирлигининг 2016 йил 25 июлдаги 8-мх ва 55-сон қарори билан янги таҳрирдаги «Мактабгача таълим муассасалари ва мактаб-интернатлардаги болалар таъминотида ҳақ тўлаш тартиби тўғрисида»ги низом. <https://lex.uz/docs/3019665>
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2015 йил 22 декабрдаги «Ўзбекистон Республикасининг 2016 йилги асосий макроиқтисодий кўрсаткичлари прогнози ва Давлат бюджети параметрлари тўғрисида»ги ПҚ-2455-сон қарори. <https://lex.uz/docs/2849450>
3. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2016 йил 24 мартдаги 21-сонли буйруғи билан тасдиқланган «Ўзбекистон Республикаси Молия вазирлигининг ахборот тизимида шахсий ғазна ҳисобварақларини юритиш» қоидалари



4. Ўзбекистон Республикаси Молия вазирининг 2010 йил 17 декабрдаги 105-сон буйруғи билан тасдиқланган «Бюджет ташкилотларида бухгалтерия ҳисоби тўғрисида»ги йўриқномага.
5. E.A. Hanushek. School Resources and Student Performance. – Cambridge: Harvard University Press, 2003.-278 p.
6. J.E. Ryan. Five Miles Away, A World Apart. – Oxford: Oxford University Press, 2010.-304 p.
7. M.H. Granof, D.R. Wardlow, D.R. Herndon. Government and Not-for-Profit Accounting. – New York: Wiley, 2016.-768 p.
8. B. Fuller. Standardized Childhood. – Stanford: Stanford University Press, 2007.-312 p.
9. C. Belfield, H.M. Levin. The Economics of Education. – Cheltenham: Edward Elgar Publishing, 2012.-423 p.
10. OECD. Education at a Glance. – Paris: OECD Publishing, 2023.-510 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
